

**MAVZU: MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TABIAT BILAN TANISHTIRISHDA
O'YIN ORQALI YONDASHUV**

Urganch davlat Pedagogika instituti talabasi:

Avezova Mastura

Urganch davlat Pedagogika instituti o'qituvchisi

Ahmedova Gulnoza

Anotatsiya: *O'yin bola uchun yetakchi faoliyat, o'yin orqali bolalarda mashg'ulot bo'yicha ma'lumotlarni bola ongiga yetkazib berish mumkin. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat haqida tanishtirish, tabiatda sodir bo'ladigan hodisalarni o'rganishda, tabiatni ya'ni atrof-muhitni anglashi uchun o'yin orqali ta'lim-tarbiya berish qanchalik ahamiyatga ega ekanligi haqida fikr yuritiladi. Albatta maqola tarkibida turli xil o'yinlar ham keltirib o'tirilgan.*

Kalit so'zlar: *o'yin, tabiat, ta'lim, tarbiya, kreativlik, tarbiyachi, bola, ong, faoliyat, pedagog.*

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida alohida ta'kidlab o'tilganidek, o'qitish jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishi ta'lim samaradorligining ortishida muhim o'rin tutadi. Bola dunyoga kelganidan boshlab, unda aynan maktabgacha bo'lgan yoshda aqliy faollik oshadi, axloqiy-estetik va jismoniy xislatlari shakllanadi. Pedagogik texnologiyalar bilan tashkil etilgan faoliyatlarda tarbiyalanuvchilar o'zlarini erkin xis qildilar, barcha topshiriqlarni bajonidil bajaradilar. Tarbiyalanuvchilar egallashlari kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni tez va zo'riqishsiz, oson egallaydilar, o'ynab zavq oladilar, tafakkurlari rivojlanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarda bunday natijalarga erishish uchun albatta metodistning har bir pedagog bilan amalga oshiriladigan ishlar rejasini puxta tuzishi va uni amaliyotga tadbiiq eta olishi zarur.

O'yin bola hayotida yetakchi faoliyatdir. Bola o'yin orqali mashg'ulotlarda faol qatnashadi, boshqa bolalar bilan aloqa o'rnatadi. Ijtimoiy-hissiy jihatdan, jismoniy jihatdan rivojlanadi. Bilish jarayonlari intellektual qobiliyatlari shakllanib boradi. Albatta bolaga tabiat haqidagi bilimlarni ham tabiiy jarayonlarni ham albatta o'yin orqali shakllantirib borish mumkin. O'yin haqida Kommenskiy shunday deydi: "O'yinni bola faoliyatining, uning tabiati va mayllariga to'g'ri keladigan zarur shakli deb hisoblanadi. Uning fikricha o'yin bolaning barcha qobiliyat ko'rinishlari rivojlanadigan jiddiy aqliy faoliyatdir, o'yin borliq, dunyo haqidagi tasavvurlar doirasi kengayadi va boyiydi, nutq rivojlanadi. Bola o'yin davomida tengdoshlari bilan suhbatlashadi", degan fikrlarni aytib o'tgan. Shu bilan bir qatorda Vigotskiy "Bolalarda tabiat haqida tasavvur uyg'otishning eng samarali usuli bu o'yindir", deydi. Bunday faoliyat bola rivojlanishida katta ahamiyatga egadir. Ilm-fan va tabiat markazida quyidagi o'yindan foydalansak ko'zlagan maqsadga erishishimiz aniq.

Xalq

donishmalari shunday deydi: “Yuz marta eshitgandan ko’ra bir marta ko’rish yaxshiroqdir”. Shuning uchun bolalarning eksperimenti maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Tajriba faoliyati bizning dunyoqarashimizni kengaytiradi, sabab-ta’sir munosabatlarini o’rnatishimizga, qiziqishni uyg’otishga, xulosa chiqarishga, aks ettirishga shuningdek xavfsizlik qoidalariga rioya qilishga o’rgatadi.

“HAVO” o’yini

Havo qaerda yashirindi? Uskunalar selofan qoplari, tish qutilari. Ayting-chi, atrofimizdagi havoni ko’ryapsizmi? (yo’q, ko’rmayapmiz) Shunday qilib, havo, nima? (ko’rinmas). Havoni tutib olaylik. Stoldan plastik to’rva oling va havoni ushlashga harakat qiling. Paketlarni burish. Paketlar bilan nima bo’ldi? (ular qoqishdi, shakl berishdi) Paketni siqib ko’ring. Nima uchun ishlamaydi? (ichida havo bor) Ushbu havo mulki qayerda ishlatilishi mumkin? (havo yostig’i, hayot qutisi). Xulosa qilaylik: havo hech qanday shaklga ega emas, u tushgan jismning shaklini oladi. Endi paketlaringiz orqali qo’lingizga qarang. Qo’lni ko’ryapsizmi? (qarang). Shunday qilib, havo, nima? (shaffof, rangsiz, ko’rinmas). Keling, tekshirib ko’ramiz, aslida havo bormi? O’tkir tayoqni oling va ehtiyotkorlik bilan paketni teshing. Uni yuzingizga olib keling va qo’llaringiz bilan bosing. O’zingizni qanday his qilyapsiz (hushtak). Shunday qilib, havo chiqadi. Biz uni ko’rmayapmiz, lekin his qilamiz. Xo’sh, endi qanday xulosaga kelish mumkin? Havo ko’rinmaydi, lekin buni sezish mumkin. Xulosa: Havo shaffof, ko’rinmas, rangsiz, shakli yo’q.



Tarbiyachi bolalarni bir necha qatlam burishgan qalin qog’oz bilan yopishtirilgan plastik shishadan iborat vulqon modelini ko’rib chiqishga taklif qiladi. Lava portlashining retsepti: suv, soda, suyuq sovun, qizil bo’yoq va sirka kislotasi Suv, soda, suyuq sovun, bo’yoq va sirka kislotasidan tashkil topgan "lava" ning otilishi



Albatta pedagog ya’ni tarbiyachi kreativlik asosida mashg’ulotga hamda bolani yoshidan kelib chiqib o’yin tashkillashtirishi kerak. Bunda tarbiyachi “o’z qobig’iga o’ralib

oluvchi” bolalarni ham jalb qilib bilishi kerak. Albatta o’yinlarda bolalar bilan qatnashishi kerak. Tabiat bilan tanishtirishda maktabgacha yoshdagi bolalarga quyidagi o’yinlarni ham o’ynatish samarali bo’ladi. Masalan “Qo’ng’izlar” o’yni. Bunda tarbiyachi

“Qo’ng’izlar uchdi” , -degan qo’ng’irog’i bo’yicha bolalar maydoncha bo’ylab har xil yo’nlashda yuguradi. “Qo’ng’izlar yiqilib tushdi” degan qo’ng’irog’i bo’yicha bolalar orqasiga yotadilar va qo’l, oyoqlari bilan erkin harakat qiladilar. Bu o’yinda bolalar tabiatda uchraydigan hasharotni , ya’ni qo’ng’izlar haqida ma’lumotga ega bo’lishadi. Uning rangini, oyoqlarini, qanotlarini qanday bo’lishini , sonini hamda joylashish tartibini bilib oladilar. Albatta tarbiyachi ko’rgazmali materiallar, rasmlardan foydalanib tushuntirib berishi kerak.

“Qushlar parvozi”

Qushlar qanotlarini yozib butun maydoncha bo’ylab uchib yuradilar. “Bo’ron boshlanadi”, degan qo’ng’iroq berilishi bilan ular daraxtlarga chiqib yashirinishlari kerak. Tarbiyachi “bo’ron bosildi” deyishi bilan qushlar shoxlardan tushadilar va uchishini davom ettirishadi.

Bu qiziqarli o’yinimizda tarbiyachi ijodkorlik qobiliyatini ishga solib biror qushni tanlab shuni rasmlar, ko’rgazmali materiallar asosida tushuntirib berishi mumkin. Masalan musichani olsak, uni qanday narsalar bilan oziqlanishi, qayerda yashashi, issiq o’lkaga uchib ketishi yoki qishlab qolishini ham aytib berishi mumkin. Albatta qanchagacha tuxum qo’yishini ham aytish kerak bo’ladi. Bilamizki bolalarga tabiat haqida tushunchalar bermoqchi bo’lsak sayrga olib chiqish ham samarali usuldir. Sayrda ham turli xil o’yinlarni tashkillashtirish mumkin. Albatta biror bir daraxtni kuzatish orqali tabiatni bir bo’lagini o’rgatsa bo’ladi. Sayr davomida bola ob-havoni o’rganadi. Turli hasharotlarni o’rganib boradi. Bolalarga o’yin orqali tabiatni tushuntirishimiz bilan birgalikda bolani jismoniy, aqliy, ijtimoiylashuv jarayonlari, nutqi rivojlanib boradi. Albatta mashg’ulotda bir-birlari bilan suhbat bo’ladi. Natijada kommunikativ kompetansiyasi hamda “men” konsepsiyasi rivojlanib boradi.

Xulosa qilib aytganda, bolani rivojlanishida o’yinning ahamiyati katta. Atrof-olam borasidagi bilimlarni berishda o’yin orqali ta’lim-tarbiya berish samarali usuldir. Albatta o’yin o’ynayotgan bola o’zini qulay muhitda his qilishi, o’zini erkin tutishi, xona yorug’ bo’lishi lozim. Asosiysi esa tashkillashtirilgan o’yin bolani yoshiga mos bo’lishi va mashg’ulotga xos tarzda tuzilishi kerak. Shundagina biz oldimizga qo’ygan maqsadimizga erishamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. N.M.Quchqorova. “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilariga o’yin orqali tarbiya berish” o’quv-uslubiy qo’llanma.-Toshkent 2022-yil 74-b.
2. F.Voxobova, D. Zayniddinova “Rivojlantiruvchi o’yinlar” Toshkent “Bekinmashoch plus” 2009 y.
- 3.lex.uz